

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

DJURAYEV AKBARJON MOMINJONOVICH

**KUZGI BUG'DOY BEGONA O'TLARIGA QARSHI UYG'UNLASHGAN
KURASHISH TADBIRLARINING SAMARADORLIGI
(SAMARQAND VILOYATINING O'TLOQI-BO'Z TUPROQLARI
SHAROITIDA)**

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Djurayev Akbarjon Mominjonovich

Kuzgi bug'doy begona o'tlariga qarshi uyg'unlashgan kurashish tadbirlarining samaradorligi (Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida.....3

Джураев Акбаржон Моминжоновича

Эффективность мероприятий интегрированной борьбы против сорных растений озимой пшеницы (в условиях лугово-сероземных почв Самаркандской области).....21

Djuraev Akbarjon Mominjonovich

Effectiveness of measures harmonized fight against weeds of winter wheat (in the conditions of meadow-gray soils of the Samarkand region)41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

DJURAYEV AKBARJON MOMINJONOVICH

**KUZGI BUG'DOY BEGONA O'TLARIGA QARSHI UYG'UNLASHGAN
KURASHISH TADBIRLARINING SAMARADORLIGI
(SAMARQAND VILOYATINING O'TLOQI-BO'Z TUPROQLARI
SHAROITIDA)**

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Qx950 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qaxai.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Rizayev Shuxrat Xudoyberdiyevich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Sadikov Esthon Polatovich
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Turdiyeva Nilufar Muminovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot: Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.05/29.08.2023.Qx.172.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «6» 05 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi, Tel.: (61) 229-27-01; fax: (61) 229-25-09; e-mail: fga_info@yedu.uz).


Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 92 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230101, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Abdambetov ko'chasi, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti bosh binosi. Tel.: (61) 229-26-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «19» 04 kuni tarqatildi.
(2025 yil «19» 04 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).




U.E. Aytjanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, q.x.f.d., katta ilmiy xodim


A. Sayimbetov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy koshi, q.x.f.d., dotsent


N.B. Reimer
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshigasi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d.,
professor

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kuzgi bug‘doy 239 mln. gektardan ortiq maydonga ekilib, yalpi mahsulot 789,0 mln.tonnani tashkil etmoqda¹. Bug‘doy don hosili yetishtirish bo‘yicha Xitoy (137,7 mln.t), Hindiston (107,7 mln.t), Rossiya (104,2 mln.t), AQSh (44,9 mln.t), Avstraliya (36,2 mln.t) davlatlari yetakchi hisoblanadi². Dunyo dehqonchiligida 3000 turga yaqin begona o‘tlar tarqalgan bo‘lib, shulardan 1800 turi katta zarar keltirib³, ularga qarshi samarali kurashishda agrotexnik, biologik va kimyoviy tadbirlarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda bug‘doy yetishtirishda begona o‘tlarni oldini olish va qarshi kurashishda almashlab ekishda maqbul ekin turlarini joylashtirish, mul‘chalash, tuproqqa turli ishlov berish usullari va gerbisidlarni qo‘llash texnologiyalari asosida ekin maydonlari fitosanitar holatini yaxshilash bilan birga, tuproq xossalari yaxshilanishiga, don hosilining oshishi va sifatini yaxshilanishiga erishilmoqda. Bu borada, kuzgi bug‘doy yetishtiriladigan maydonlarda tuproqlarning begona o‘tlar bilan zararlanganlik darajasini hisobga olib, ularni yo‘qotishda tuproqqa ishlov berish usullari va ekologik xavfsiz bo‘lgan gerbisidlar turlari va me‘yorlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda ham joriy yilda kuzgi bug‘doy parvarishida resurs tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni qo‘llash natijasida o‘rtacha hosildorlik 85 s/ga yetkazildi. Albatta, don hosildorligini oshirishda bug‘doy maydonlarida tarqalgan begona o‘tlarga qarshi agrotexnik va kimyoviy kurashishning ilmiy asoslarini yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borish muhimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmonida “oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlashda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslar, pestisidlar va kimyoviy vositalardan foydalanishni nazorat qilish, 2030 yilgacha boshqoli don ekinlarining o‘rtacha hosildorligini 75 s/ga.dan oshirish” ustuvor vazifa qilib belgilangan. Shundan kelib chiqib, kuzgi bug‘doy ekiladigan maydonlarni begona o‘tlar bilan zararlantirishni aniqlash asosida, ularni oldini olish va qarshi kurashishda agrotexnik va kimyoviy kurashishning maqbul texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-yanvardagi PF-5303-son “Mamlakatning oziq-ovqat havfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-

¹ <https://www.fao.org/worldfoodsituation/csdb/ru>

² <https://agromics.ru/novosti/zerno>

³ <http://www.fao.org/homelen>, <http://www.icar.org.in>, <https://www.embrapa.br>, <https://www.icc.or..>, <http://www.link.springer>, <http://www.indianjournals>, <https://www.usda.gov>, <https://www.dpi.nsw.gov.au/research>

quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda begona o‘tlarning turlari, keltiradigan zararlari va ularga qarshi kurashish bo‘yicha P.Gomoliskiy, M.Muhammadjonov, F.Hasanova K.Mo‘minov, Sh.Rizayev, B.Nosirov, M.Shodmanov, N.Turdiyeva, S.Sulliyeva, U.Chorshanbiyev, Sh.Axmurzayev, M.Ajiniyazova, K.Sharifov, xorijda K.Moody, S.Assmann, F.Ashton, A.Zaxarenko, G.Gruzdev, A.Fisyunov, S.Kott, A.Tulikov, V.Zuza U.Shou, V.Nikitinlar tomonidan turli tuproq-iqlim sharoitlarida ilmiy izlanishlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Ammo, Samarqand viloyatining o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy maydonlarini begona o‘tlar urug‘lari bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash, ularga qarshi tuproqqa turli ishlov berish, yangi turdagi gerbisidlarining don hosili va uning sifatiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti 2021-2023 yillarda Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va meliorasiya” kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tuproqlar ekologiyasini o‘rganish, unumdorligini oshirish, ekin navlarini tadqiq qilish va ularni yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyatining o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida kuzgi bug‘doy maydonlarining begona o‘tlar urug‘lari bilan ifloslanganlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosida, ularga qarshi tuproqqa asosiy va yuza ishlov berish hamda yangi turdagi gerbisidlarni qo‘llashni begona o‘tlarga hamda don hosili va uning sifatiga ta‘sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- kuzgi bug‘doy ekiladigan maydonlarda turli tuproqqa ishlov berish usuli va chuqurligida kuzgi shudgorlashdan oldin va bahorda tuproqni begona o‘tlar urug‘i bilan ifloslanganlik darajasini aniqlash;

- tuproqqa turli ishlov berish usuli va chuqurligining tuproq hajm massasi, g‘ovakligi va suv o‘tkazuvchanligiga ta‘sirini o‘rganish;

- tuproqqa turli ishlov berish usuli, chuqurligi va turli tarkibli gerbisidlarni qo‘llash me‘yori, usullarining tuproq mikroorganizmlariga hamda kuzgi bug‘doy dalasidagi begona o‘tlarga ta‘sirini aniqlash;

- kuzgi bug‘doyni dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o‘simliklar soni, o‘suv davri davomiyligi, bo‘yi, umumiy va mahsuldor poyalar soni, hosil elementlari, don hosildorligi va uning sifatiga ta‘sirini tuproqqa turli ishlov berish usuli va chuqurligi hamda gerbisidlarni qo‘llash me‘yori va usullariga bog‘liqligini ilmiy asoslash;

- tuproqqa ishlov berish va gerbisidlarning kuzgi bug‘doy yetishtirishdagi iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamd a ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘tloqi-bo‘z tuproqlar, kuzgi bug‘doyning “Grom” navi, tuproqqa ishlov berish usullari, Granstar 75% DF, Pik 75%, Aksial 50 KE gerbisidlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, tuproqqa ishlov berish, gerbisidlar me‘yori, tuproq agrofizik xossalari va mikrobiologik faoliyati, begona o‘tlar urug‘lari, turlari va miqdori, kuzgi bug‘doyning o‘sishi, riojlanishi, hosildorligi, sifat ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dala tajribalarini o‘tkazish, laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar va biometrik o‘lchashlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari”, “Методика полевого опыта”, “Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в полевых хлопковых районах”, “Методы агрофизических исследований почв Средней Азии” uslubiy qo‘llanmalari asosida olib borilgan. Tadqiqot natijalari statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining o‘tloqi-bo‘z tuproqlari sharoitida g‘alla-sabzavot almashlab ekish tizimida tuproqlarning begona o‘tlar bilan ifloslanganlik ko‘rsatkichi aniqlanib, kuzgi bug‘doydan yuqori va sifatli don hosili olishda tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o‘tkazilib, gerbisidlar Pik 75% - 15 g/ga+Aksial 50 KE 0,75 l/ga me‘yorlarida birgalikda aralashma hoida qo‘llash yuqori samara berishi ilmiy isbotlangan;

g‘alla-sabzavot almashlab ekish tizimida tuproqning begona o‘tlar bilan ifloslanganlik ko‘rsatkichlariga ko‘ra, juda kuchli (5 ball, 130,4-131,6 mln.dona/ga) zararlanganligi qayd etilib, tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o‘tkazilganda tuproqni begona o‘tlar urug‘i bilan ifloslanish miqdori eng kam (43,3 mln.dona/ga) bo‘lib, 3-ball - o‘rtacha ifloslanganligi aniqlangan;

tuproqning agrofizik xossalari - tuproq hajm massasi, g‘ovakligi va suv o‘tkazuvchanligini yaxshilaydigan maqbul tuproqqa ishlov berish usuli va chuqurligi (shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash) aniqlangan;

tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o‘tkazilib, gerbisidlar Pik 75% - 15 g/ga+Aksial 50 KE 0,75 l/ga me‘yorlarida birgalikda aralashma hoida qo‘llash bir yillik begona o‘tlarni 92,3-100 %, ko‘p yilliklarni 80,9-85,6% nobud qilib, kuzgi bug‘doyni o‘sishi, rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, tannarxi arzon yuqori va sifatli don hosili yetishtirishni ta‘minlagan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. G‘alla-sabzavot almashlab ekish tizimida begona o‘tlar bilan kuchli zararlangan yerlarda tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o‘tkazilib, kuzgi bug‘doyni tuplanish davrida gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE -0,75 l/ga me‘yorlarida birgalikda qo‘llash begona o‘tlarni 80,9-100% kamaytirishi hisobiga don hosilini 74,1 s/ga yuqori bo‘lishiga erishilgan;

o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida tuproqlarni begona o'tlar bilan juda kuchli ifloslanganligi aniqlanib, yer shudgorlanmay yuza ishlov (chizellash 18-22 sm+molalash) o'tkazilganda haydov qatlamida begona o'tlar urug'i miqdori keskin ko'payib (0-10 sm qatlamda 165,5-169,7 mln.dona/ga) borishi, tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o'tkazilishi tuproqni begona o'tlar urug'i bilan ifloslanish ko'rsatkichi eng kam (43,3 mln.dona/ga) bo'lishiga olib kelgan;

tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o'tkazilganda, tuproq zichligini kamaytirib, uning g'ovakligi va suv o'tkazuvchanligini yaxshilanganligi, ushbu tuproqqa ishlov berish tizimida gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE - 0,75 l/ga me'yorlarida birgalikda aralashma holida qo'llash tuproqdagi mikroorganizmlar va donning sifatiga salbiy ta'sir etmaganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar uslubiy jihatdan to'g'ri bajarilganligi, dala va laboratoriya tahlillari matematik-statistik ishlovdan o'tkazilganligi, tajribalar mutaxassislar tomonidan aprobasiyadan o'tkazilganligi, olingan natijalar xalqaro va mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanib, natijalarning ishlab chiqarishga joriy qilinganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi ilmiy ishning ishochliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, begona o'tlar bilan kuchli zararlangan yerlarda maqbul tuproqqa ishlov - shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o'tkazilib, gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE -0,75 l/ga me'yorlarida birgalikda qo'llash tuproq agrofizik va mikrobiologik xossalari, ekin maydoni fitosanitar holati, kuzgi bug'doyning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligiga samaradorligi to'g'risida yangi ma'lumotlar olinganligi bilan izoxlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, g'alla-sabzavot almashlab tizimida begona o'tlar bilan kuchli zararlangan yerlarda kuzgi bug'doydan yuqori don hosili (74,1 s/ga) yetishtirishda shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida o'tkazilib, gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE -0,75 l/ga me'yorlarida birgalikda qo'llash yuqori iqtisodiy samara (rentabellik 91,0 %) berishi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining o'tloqi – bo'z tuproqlari sharoitida g'alla-sabzavot almashlab ekish tizimida kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda tuproqqa ishlov berish va gerbisidlarni qo'llash agrotexnologiyasini samaradorligini asoslash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

g'alla-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida yuqori don hosili yetishtirish bo'yicha "Kuzgi bug'doyzorlarda tarqalgan begona o'tlarga qarshi kurashish tadbirlari" tavsiyanomasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazining 2024 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-584-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma g'alla-sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida kuzgi bug'doy yetishtirishda qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

ishlab chiqarish tajribalari kuzgi bug‘doy maydonlarida begona o‘tlarga qarshi kurashishda tuproqqa ishlov berish va gerbisidlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llash agrotexnologiyalari Samarqand viloyatining Toyloq (40,5 ga) Bulung‘ur (32,1 ga) va Jomboy (126,7 ga) tumanlarida, jami 199,3 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazining 2024 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-584-son ma‘lumotnomasi). Natijada, tuproqqa ishlov shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida, Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE - 0,75 l/ga me‘yorlarida birgalikda qo‘llash yuqori samara berishi aniqlangan;

bir yillik, bir va ikki pallali begona o‘tlar bilan kuchli zararlangan kuzgi bug‘doy maydonlarida shudgorlash 30-35 sm, chizellash 18-22 sm, molalanib, gerbisidlardan Pik 75% -15 g/ga+Aksial 50 KE - 0,75 l/ga me‘yorlarida birgalikda aralashma holida qo‘llanish texnologiyasi Samarqand viloyatining Toyloq (40,5 ga) Bulung‘ur (32,1 ga) va Jomboy (126,7 ga) tumanlarida, jami 199,3 gektar maydonda joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazining 2024 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-584-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida ushbu ishlov berish tizimida Granstar 75% (etalon) 15 g/ga alohida qo‘llanilganga nisbatan 5,4-7,7 s/ga qo‘shimcha don hosili yetishtirilib, rentabellik 77,5-84,2 %ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dala tajribalari har yili Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus komissiyasi tomonidan aprobasiyadan o‘tkazilib, “yaxshi” baholangan. Tadqiqotdan olingan natijalar 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida ma‘ruza qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertasiya bo‘yicha chop etilgan jami 9 ta ilmiy ishlardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiyasi komissiyasining dissertasiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, jumladan, mahalliy nashrlarda 2 ta, xorijiy nashrlarda 1 ta chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifasi hamda obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Dehqonchilik yuritishda qishloq xo‘jaligi yerlarida tarqalgan begona o‘tlar, ularni tarqalishini oldini olish va qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida Respublikamiz va xorijda qishloq xo‘jalik ekin maydonlarida tarqalgan begona o‘tlar, ularning turlari, biologik xususiyatlari, keltiradigan zararlari hamda ularni

tarqalishini oldini olish va qarshi kurashishda agrotexnik va kimyoviy tadbirlarning samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertasiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi, tuproq-iqlim sharoitlari va qo'llanilgan uslublar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan Samarqand viloyati Toyloq tumanining tuproq-iqlim sharoitlari hamda tadqiqot obyekti va o'tkazish uslublari, agrotexnik tadbirlar keltirilgan. Dala tajribalari 15 ta variantda, har bir variant 12 qator, eni $8,4 \times 40 = 336 \text{ m}^2$, shundan hisobga olingani 112 m^2 , 3 takrorlikda, tajriba umumiy maydoni 15120 m^2 da o'tkazilgan.

Tajriba maydoni tuproqlari o'tloqi-bo'z, mexanik tarkibi o'rta qumoq, haydalma 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida gumus miqdori 1,27-0,83%, umumiy azot 0,14-0,11%, fosfor 0,26-0,19 %, kaliy 2,27-2,14 % ni tashkil etib, haydalma osti chuqurlashgan sari oziqa moddalar miqdorining kamayib borishi kuzatilib, tuproq muhiti kuchsiz ishqoriy pH-7,1-7,2 ga teng.

Samarqand viloyati iqlimi tez o'zgaruvchan, quruq va yozi issiq, bahor oylarida yog'in miqdori yetarli bo'lib, qishi sovuq bo'lishi bilan ajralib turadi. Tadqiqot o'tkazilgan yillarda (2021-2023 yy) bahorda mart, aprel, may oylarida o'rtacha havo harorati, yillar bo'yicha - 8,2-14,1; 15,1-17,4 va 20,1-22,6 °C, yog'in miqdori, 31,1-118,4; 24,0-77,8 va 1,5-41,9 mm, yozda iyun, iyul va avgust oylarida havo harorati yillar bo'yicha 25,4-26,3; 26,6-28,5 va 25,2-26,0 °C, yog'in 0,1-8,7; 1,8-2,1 va 22,5 mm.ni tashkil etgan.

Dissertasiyaning **“Tuproqqa ishlov berish va gerbisidlarning tuproqning agrofizik xossalari, mikrobiologik faoliyati hamda kuzgi bug'doy dalasidagi begona o'tlarga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida tuproqqa ishlov berish va gerbisidlarning tuproq agrofizikaviy va mikrobiologik xossalariga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Tajriba qo'yishdan oldin dastlab 2020 yil kuzda shudgorlashdan oldin tuproq qatlamlari bo'yicha namunalar olinib, tahlil etilganda tuproq hajm massasi 0-15 sm haydov qatlamida $1,357 \text{ g/sm}^3$, 15-30 sm.da $1,384 \text{ g/sm}^3$ bo'lganligi qayd etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, kuzgi bug'doy ekishdan oldin 20-25 sm chuqurlikda shudgorlangan variantlarda tuproq hajm massasini sezilarli kamayishi qayd etilib, 0-15 sm haydalma qatlamda $1,297 \text{ g/sm}^3$, 15-30 sm.da $1,341 \text{ g/sm}^3$ yoki dastlabkiga (shudgordan oldin) nisbatan $0,06-0,043 \text{ g/sm}^3$ ga kam bo'lganligi hisobga olingan. Yer shudgorlanmasdan to'g'ridan-to'g'ri 18-22 sm.da chizellanib kuzgi bug'doy ekilgan variantlarda, ekishdan oldin 0-15 sm.da $1,305 \text{ g/sm}^3$, dastlabkiga nisbatan $0,052 \text{ g/sm}^3$ kamaygan bo'lsa, 15-30 sm.da $1,388 \text{ g/sm}^3$ yoki $0,004 \text{ g/sm}^3$ tuproq hajm massasi dastlabki ko'rsatkichga nisbatan ortganligi aniqlangan. Shudgorlash 30-35 sm o'tkazilganda ekishdan oldin tuproq hajm massasi 0-15 sm.da $1,285 \text{ g/sm}^3$, 15-30 sm.da $1,327 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil etib, dastlabkiga nisbatan $0,072-0,057 \text{ g/sm}^3$ ga kamayishi hisobga olingan.

Yillar bo'yicha (2020-2023 yy) bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkichlar shudgorlash 30-35 sm.da o'tkazilgan variantlarda kuzatilib, tajribaning dastlabki yilida (2020 y) shudgorlashdan oldin 0-30 sm.da tuproq hajm massasi – $1,370 \text{ g/sm}^3$, ekishdan oldin $1,306 \text{ g/sm}^3$, amal davri oxirida $1,340 \text{ g/sm}^3$ ni, bu ko'rsatkichlar tajribaning oxirgi yilida (2022-2023 yy) shudgorlashdan oldin $1,342$

g/sm³, ekishdan oldin – 1,289 g/sm³, amal davri oxirida -1,327 g/sm³ yoki tuproqqa yuza 18-22 sm chizellanib kuzgi bug‘doy parvarishlangan variantlarga nisbatan - 0,097; 0,113 va 0,121 g/sm³ ga, shudgorlash 20-25 sm o‘tkazilganga nisbatan- 0,043; 0,046 va 0,052 g/sm³ kamayganligi kuzatilgan.

Tuproqqa yuza ishlov (chizellangan 18-22 sm+molalash) berilganda dastlabki yilga nisbatan tajribaning oxirgi yilida 0-30 sm qatlamda tuproq hajm massasi shudgorlashdan oldin – 0,069 g/sm³, ekishdan oldin - 0,059 g/sm³, amal davri oxirida - 0,060 g/sm³ ortib borganligi aniqlangan.


Kuzgi bug‘doyni amal davri oxirida tuproq hajm massasi yillar bo‘yicha (2021-2023 yy) 0-30 sm.da shudgorlash 20-25 sm+chizellash 18-22 sm + molalash variantda 1,359-1,369-1,379 g/sm³, chizellash 18-22 sm+molalashda 1,388-1,422-1,448 g/sm³, shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalashda 1,340-1,328-1,327 g/sm³ bo‘lganligi qayd etilgan. Shudgorlash 30-35 sm.da o‘tkazilgan variantlarda tuproqqa yuza 18-22 sm chizellangan variantlarga nisbatan 0-30 sm qatlamda bug‘doy amal davri oxirida tuproq hajm massasini 0,048-0,094 g/sm³ga, shudgorlash 20-25 sm.da ishlov berilgan variantga nisbatan 0,019-0,041-0,052 g/sm³ga yaxshilanishini ta‘minlagan.

Tajribaning dastlabki (2020 y) yilida shudgorlashdan oldin haydalma 0-15 va 15-30 sm qatlamida tuproq g‘ovakligi 49,4-48,7%, 0-30 sm qatlamda o‘rtacha 49,1%, bug‘doy amal davri oxirida shudgorlash 20-25 sm+chizellash 18-22 sm+molalash variantida tegishlicha: 49,8-49,2 va 49,5 %, chizellash 18-22 sm+molalashda 49,3-47,5 va 48,4%, shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalashda 50,4-49,9 va 50,2 % bo‘lganligi hisobga olingan. Kuzgi bug‘doy parvarishida tuproqqa yuza ishlov (chizellash 18-22 sm+molalash) o‘tkazilgan variantda haydalma 0-30 sm.da tuproq g‘ovakligi tajriba yillari bo‘yicha pasayib borishi kuzatilgan. Masalan, tajribaning dastlabki yilida (2020-2021 yy) shudgordan oldin - 49,1%, ekishdan oldin -50,1 %, amal davri oxirida-48,4%, ikkinchi yilda (2021-2022 yy) tegishlicha, 47,8-48,9-47,2%, 3-yilida (2021-2023 yy) 46,7-47,9-46,2 % bo‘lganligi yoki dastlabkiga nisbatan 2,4-2,2-2,2 % kamayib borganligi aniqlangan.

Tajribada shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm +molalash variantida tuproq g‘ovakligi dastlabki holatiga ko‘ra, amal davri oxirida yillar bo‘yicha ortib, yaxshilanib borishi kuzatilib, 0-30 sm qatlamda tajriba yillari bo‘yicha (2020-2023 y) amal davri oxirida– 50,2-50,7-50,7% yoki dastlabkiga nisbatan 1,1-1,0-1,6% ga ortganligi hisobga olingan. Bu ko‘rsatkichlar chizellash 18-22 sm + molalash variantiga nisbatan tegishlicha 1,8-3,5-4,5% ga, shudgorlash 20-25 sm + chizellash 18-22 sm + molalash variantiga nisbatan 0,7-1,6-1,9 % ga yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Tajriba ma‘lumotlariga ko‘ra, yer shudgorlanmay 18-22 sm.da chizellanib, molalab kuzgi bug‘doy parvarishlangan variantda tajribaning dastlabki yilida (2020-2021 yy.) tuproqning suv o‘tkazuvchanligi kuzatishning dastlabki 1-2-3 soatlarida 172,5-137,3-100,3 m³/ga, 4-5-6 soatlarida 81,3-67,9-47,8 m³/ga bo‘lgan bo‘lsa, tajribaning oxirgi yilida (2022-2023 yy) tuproq suv o‘tkazuvchanligi kamayib borishi kuzatilgan. Bug‘doy ekishdan oldin 1-2-3 soatlarda 161,4-120,4-

88,7 m³/ga, 4-5-6 soatlarda esa, 76,3-58,8-44,6 m³/ga, jami 6 soatda 550,2 m³/ga, amal davri oxirida esa tegishli: 81,7-72,8-54,6 va 41,3-32,1-26,7 m³/ga, jami 6 soatda 309,2 m³/ga.ni tashkil etib, tajribaning dastlabki (2020-2021 yy.) yiliga nisbatan jami 6 soatda 56,9-69,2 m³/ga kam bo‘lganligi hisobga olingan (1-rasm).



1-rasm. Kuzgi bug‘doy dalasida tuproqqa turli ishlov berish usullarini tuproqning suv o‘tkazuvchanligiga ta’siri, m³/ga, (o‘rtacha 2020-2023 yy.)

Tajribada tuproq suv o‘tkazuvchanligi bo‘yicha eng yaxshi ko‘rsatkichlar, shudgorlash 30-35 sm + chizellash 18-22 sm + molalash variantida kuzatilib, ekishdan oldin (2020-2021 y) 1-2-3 soatlarda 192,5-171,6-138,3 m³/ga, 4-5-6 soatlarda 105,1-81,7-62,4 m³/ga, jami 6 soatda 751,6 m³/ga.ni, amal davri oxirida esa, tegishli: 114,6-107,1-81,4 va 68,8-55,2-44,1 m³/ga, jami 471,2 m³/ga ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar shudgorlash 20-25 sm+chizellash 18-22 sm+molalash variantiga nisbatan jami 6-soatda ekishdan oldin – 28,7 m³/ga amal davri oxirida – 40,8 m³/ga.ni, chizellash 18-22 sm+molalash variantiga nisbatan – 144,5-92,8 m³/ga ko‘proq suv o‘tkazganligi aniqlangan.

Tajribada kuzgi bug‘doy begona o‘tlariga qarshi Granstar 75% -15 g/ga (etalon), Pik 75% -15 g/ga, Aksial 50 KE -0,75 l/ga va gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+ Aksial 50 KE - 0,75 l/ga birgalikda aralashma holda qo‘llashning mikroorganizmlar faoliyatiga ta’sirini o‘rganish maqsadida gerbisidlar qo‘llanilgandan so‘ng, kuzgi bug‘doyning amal davri oxirida tuproq tahlillari o‘tkazilganda, gerbisid qo‘llanilmagan 1-6-11-variantlarda 0-30 sm qatlamda bakteriyalar miqdori 1 g tuproqda tegishli: 60,4; 62,3 va 61,6 mln/donani, zamburug‘lar 82,1; 83,6 va 82,7 ming/dona, aktinomisetlar 53,2; 55,1 va 54,3 mln/donani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar shudgor 20-25 sm+ chizellash 18-22 sm+molalash fonidagi gerbisidlar Granstar 75% -15 g/ga (etalon), Pik 75% -15 g/ga, Aksial 50 KE -0,75 l/ga va gerbisidlar Pik 75% -15 g/ga+ Aksial 50 KE - 0,75 l/ga

birgalikda qo'llanilgan 2-3-4-5-variantlarda tegishlicha: 57,4; 59,4; 56,3; 55,1 mln/dona, 79,8; 78,8; 77,2; 75,6 ming/dona, 50,4; 51,7; 52,3; 49,7 mln/donani, chizellash 18-22 sm, molalash fonidagi gerbisidlar qo'llanilgan 7-8-9-10-variantlarda esa, bakteriyalar miqdori 60,4; 61,6; 60,3; 59,4 mln/dona, zamburug'lar 81,7; 80,8; 79,6; 78,2 ming/dona, aktinomisetlar 53,6; 54,5; 52,7; 52,2 mln/dona bo'lgan bo'lsa, shudgorlash 30-35 sm, chizellash 18-22 sm, molalash fonidagi 12-13-14-15-variantlarda esa, 60,8; 57,5; 58,3; 56,7 mln/dona, 79,3; 78,5; 78,3; 77,8 ming/dona, 50,6; 51,8; 50,2; 49,5 mln/dona bo'lib, begona o'tlarga qarshi qo'llanilgan gerbisidlar tuproqdagi mikroorganizmlarga zararli ta'sir etmaganligi, balki, ular faoliyatini yaxshilanib borganligi aniqlangan.


Tajribada o'simlik urug'i unib chiqishi uchun ahamiyatli bo'lgan 0-10 sm qatlamda tuproqning begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganlik ko'rsatkichi aniqlash uchun har bir tuproqqa ishlov berish variantining 5 ta nuqtasidan 0-10 sm qatlamdan o'rtacha tuproq namunalari olinib, tahlil etilganda dastlabki 2020 yilda kuzda shudgorlashdan oldin begona o'tlar urug'i miqdori o'rtacha 1m² da 13047,3-13167,6 dona mavjudligi hisobga olingan. Tuproqqa 20-25 sm da ishlov berilgan paykallarda o'rtacha uch yilda kuzda shudgorlashdan oldin 11327,1 dona/m², bahorda 6742,2 dona/m² ni tashkil etib, tuproqni begona o'tlar urug'i bilan ifloslanganlik ko'rsatkichi – kuzda 5-ball, gektariga 113,2 mln.dona, juda kuchli, bahorda esa 4 ball, gektariga 67,4 mln.dona, kuchli zararlanganligi qayd etilgan (2-rasm).

Tuproqqa yuza (chizellash 18-22 sm+molalash) ishlov berilgan paykallarda begona o'tlar urug'ining miqdori yillar bo'yicha keskin ko'payib borishi qayd etilib, dastlabki (2020-2021 y) yilda kuzda shudgorlashdan oldin 13058,7 dona/m²ni, bahorda 13974,4 dona/m²ni tashkil etgan bo'lsa, tajribaning oxirgi yilida esa tegishlicha: 7265,0-6563,0 dona/m² ga oshib borganligi aniqlanib, kuzda va bahorda ham 5 ballni, gektariga o'rtacha uch yilda 165,5-169,7 mln.donani tashkil etib, juda kuchli zararlanganligi hisobga olingan. Bu esa, bunday yerlarda agrotexnik tadbirlar bilan kimyoviy tadbirlarni birgalikda olib borish zarurligini taqozo etishi keltirib o'tilganb (2-rasm).

Dala tajribalarida shudgorlash 30-35 sm+chizellash 18-22 sm+molalash tizimida kuzgi bug'doy parvarishlanganda 2020 yil kuzda tuproq tahlilida begona o'tlar urug'i o'rtacha - 13047,3 dona/m² hisobga olingan bo'lsa, oxirgi (2022-2023 yy) yilda kuzda shudgorlashdan oldin 5638,2 dona/m²ga, bahorda esa, 1549,3 dona/m²ga kamayib, tuproqning begona o'tlar bilan ifloslanish ko'rsatkichi aniqlanganda, o'rtacha uch yilda kuzda 4-ball (98,3 mln.dona/ga) - kuchli, bahorda esa, 3-ball (43,3 mln.dona/ga) – o'rtacha zararlanganligi hisobga olingan (2-rasm).

Dala tajribalarida ekin maydonini begona o'tlar bilan zararlanishi kuzda shudgorlashdan oldin, bahorda gerbisidlar qo'llashdan oldin va gerbisidlar qo'llanilgandan so'ng 10, 20, 30 kunlarida har bir variant va takrorliklarda miqdoriy o'lchash usuli (aniq usul)da hisobga olingan.

Dala tajribalarini dastlab yilida (2020 y) kuzda shudgorlashdan oldin tajriba maydonida, asosan bir yillik bir pallali begona o'tlardan yovvoyi sulii, raygras,




itqo'noq, shamak, ikki pallalilardan shudgoro't, yovvoyi gultojixo'roz, jag'-jag', oq sho'ra, ko'p yilliklardan ajriq, otquloq va qo'ypechak bilan ko'p zararlanganligi qayd etilib, bir yilliklar o'rtacha 1 m² da 37,7-45,7 dona, ko'p yilliklar 2,7-8,57 dona mavjudligi hisobga olingan (3-rasm).

Tuproqqa turli ishlov berish usuli va chuqurligining samaradorligini aniqlash uchun bahorda kuzgi bug'doy tuplanish fazasida gerbisidlar qo'llashdan oldin begona o'tlar hisobga olinganda, shudgorlash 20-25 cm o'tkazilgan variantlarda bir yillik, bir va ikki pallali begona o'tlarni o'rtacha 23,5-24,5 %, ko'p yilliklarni 21,1-22,7 kamaygan bo'lsa, kuzda shudgorlash o'tkazilmay, tuproqqa yuza ishlov (chizellash 18-22 sm+molalash) berilib, bug'doy ekilgan variantlarda bir yilliklar 44,97-48,57 dona, ko'p yilliklar 5,26-8,19 donaga ko'payib borganligi aniqlangan.

Yer kuzda 30-35 cm.da shudgorlangan variantlarda esa, shudgorlash 20-25 cm va tuproqqa yuza 18-22 cm da chizellanib ishlov berilgan variantlarga nisbatan begona o'tlar miqdori keskin kamayganligi aniqlanib, dastlabki yilga nisbatan bir yilliklarni 50,0-51,2% gacha, ko'p yilliklarni esa 45,3-47,3% gacha yo'qotganligi hisobga olingan.

Tajriba yillari bo'yicha gerbisidlarni qo'llash (2021-2023 yy) mart oyining 18-25 sanalarida, havo harorati 18-22 °C, havoning nisbiy namligi 50-55% bo'lganda kuzgi bug'doyni tuplanish fazasida o'tkazilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, gerbisidlar qo'llanilgandan so'ng 30 kun o'tgach o'rtacha uch yilda (2021-2023 yy) tajriba maydonida gerbisidsiz nazorat 1-6-11-variantlarda 1m² da bir yilliklar - 48,45; 63,06; 39,19 donani, ko'p yilliklar - 10,75; 12,03; 9,85 donani tashkil etib, tajriba bir dalada o'tkazilganligi sababli, keyingi 2-3 yillarda begona o'tlar miqdori oshib borganligi kuzatilgan (1-jadval).



3-rasm. Tajribada dastlab shudgorlashdan oldin begona o'tlar miqdori, o'rtacha dona/m² (2020 y.)

Tajribada tuproqqa 20-25 sm.da ishlov berish fonida Granstar 75% (etalon) gerbisidi 15 g/ga me'yorida qo'llanilgan 2-variantda o'rtacha uch yilda (2021-2023 y) 1m² da bir yillik, ikki pallali begona o'tlar yovvoyi gultojixo'roz, jag'-jag', oqsho'ra va shudgoro'tni 86,4-90,5%, ko'p yilliklar otquloq va qo'ypechakni 36,2-38,5 % nobud qilgan. Ushbu ishlov berish chuqurligida Pik 75% 15 g/ga qo'llanilgan 3-variantda esa, ikki pallali begona o'tlarga samaradorligi yuqori bo'lib, bir yilliklarni 88,6-100%, ko'p yilliklarni 82,9-83,2% nobud qilib, Granstar 75% (etalon, 15 g/ga) gerbisidiga nisbatan bir va ko'p yillik ikki pallali begona o'tlarga nisbatan yuqori biologik samaradorlikni ta'minlaganligi qayd etilgan.

Lekin, barcha tuproqqa ishlov berish fonlarida Granstar 75% (etalon) 15 g/ga va Pik 75% 15 g/ga qo'llanilgan variantlarda bir yillik va ko'p yillik bir pallali boshqoli begona o'tlar yovvoyi suli, raygras, itqo'noq, shamak hamda ajriqqa ta'sir etmaganligi aniqlangan (1-jadval).

Tajriba dalasida bir va ko'p yillik, boshqoli begona o'tlar turlari - yovvoyi suli, raygras, itqo'noq, shamak keng tarqalganligi aniqlangan. Tajribada o'rganilgan yangi turdagi tarkibi pinoksaden + klokvintoset meksil bo'lgan Aksial 50 KE gerbisidi 0,75 l/ga me'yori boshqoli begona o'tlarga yuqori biologik samaradorlikni ta'minlab, ushbu gerbisid qo'llanilgan 4-9-14-variantlarda yovvoyi suli, raygras, itqo'noq va shamakni 86,8-100%, ajriqni 73,8-74,6% kamaytirganligi kuzatilgan. Lekin, Aksial 50 KE (0,75 l/ga) gerbisidi alohida qo'llanilgan 4-9-14 variantlarda bir va ko'p yillik ikki pallali begona o'tlarga ta'siri kuzatilmagan.

Tajribalarimizda kuzgi bug'doy begona o'tlariga qarshi kurashishda eng yuqori biologik samaradorlik tuproqqa 30-35 sm da kuzda shudgorlanib, Pik 75% - 15 g/ga + Aksial 50 KE 0,75 l/ga meyorlarida birgalikda aralashma holida ishlov berilgan 15-variantida qayd etilib, o'rtacha: 1m² da bir yillik, bir pallali boshqoli begona o'tlar: itqo'noq va shamakni-100 %, raygras va yovvoyi sulini 94,2-94,7%,

Tajribada gerbisidlar qo'llanilgandan 30 kun o'tgach begona o'tlar miqdori, suratida qolgan begona o'tlar soni, dona/m², maxrajida nobud bo'lishi, % o'rtacha 2021-2023 y.

Variantlar	Bir yillik begona o'tlar									Ko'p yillik begona o'tlar			
	Yov. Suli	Raygras	Itqo'noq	Shamak	Shudgor o't	Yovvoyi gultojixo'roz	Jag'-jag'	Oq sho'ra	Jami	Ajriq	Otquloq	Qo'ypechak	Jami
1. Shudgorlash 20-25 sm, chizellash 18-22 sm, molalash (FON-I). Nazorat - gerbisidsiz	<u>5,97</u> -	<u>5,70</u> -	<u>6,68</u> -	<u>6,44</u> -	<u>6,85</u>	<u>6,57</u> -	<u>4,91</u> -	<u>5,33</u> -	<u>48,45</u> -	<u>3,37</u> -	<u>3,09</u> -	<u>4,29</u> -	<u>10,75</u> -
2. FON-I. Granstar 75% -15 g/ga (etalon)	<u>5,38</u> -	<u>6,05</u> -	<u>6,20</u> -	<u>6,07</u> -	<u>0,28</u> 90,5	<u>0,41</u> 86,4	<u>0,26</u> 88,6	<u>0,32</u> 88,9	<u>24,99</u> 44,2	<u>3,27</u> -	<u>0,87</u> 36,2	<u>1,25</u> 38,5	<u>5,39</u> 24,9
3. FON-I. Pik 75% -15 g/ga	<u>5,75</u> -	<u>5,76</u> -	<u>6,42</u> -	<u>6,06</u> -	<u>0</u> 100	<u>0,38</u> 88,6	<u>0,31</u> 89,1	<u>0,30</u> 89,6	<u>24,98</u> 45,9	<u>3,36</u> -	<u>0,26</u> 82,9	<u>0,34</u> 83,2	<u>3,96</u> 55,4
4. FON-I. Aksial 50 KE - 0,75 l/ga	<u>0,34</u> 88,4	<u>0,39</u> 88,1	<u>0</u> 100	<u>0,22</u> 90,6	<u>6,31</u> -	<u>5,83</u> -	<u>5,85</u> -	<u>6,02</u> -	<u>24,96</u> 45,9	<u>0,30</u> 74,6	<u>3,15</u> -	<u>3,91</u> -	<u>7,36</u> 24,9
5. FON-I. Pik 75% -15 g/ga+ Aksial 50 KE - 0,75 l/ga	<u>0,25</u> 91,1	<u>0,29</u> 89,7	<u>0</u> 100	<u>0,20</u> 91,7	<u>0</u> 100	<u>0,31</u> 89,6	<u>0,40</u> 87,8	<u>0,27</u> 90,9	<u>1,72</u> 92,6	<u>0,29</u> 77,2	<u>0,21</u> 84,6	<u>0,30</u> 83,7	<u>0,80</u> 81,8
6. Chizellash 18-22 sm, molalash (FON-II). Nazorat-gerbisidsiz	<u>7,50</u> -	<u>7,62</u> -	<u>8,55</u> -	<u>8,03</u> -	<u>7,80</u> -	<u>8,52</u> -	<u>7,73</u> -	<u>7,31</u> -	<u>63,06</u> -	<u>3,71</u> -	<u>3,48</u> -	<u>4,84</u> -	<u>12,03</u> -
7. FON-II. Granstar 75% -15 g/ga (etalon)	<u>8,21</u> -	<u>8,05</u> -	<u>8,79</u> -	<u>8,76</u> -	<u>0,81</u> 85,9	<u>0,72</u> 86,7	<u>0,68</u> 86,9	<u>0,84</u> 85,4	<u>36,88</u> 43,1	<u>4,28</u> -	<u>1,94</u> 32,3	<u>2,10</u> 34,4	<u>8,33</u> 22,2
8. FON-II. Pik 75% -15 g/ga	<u>7,13</u> -	<u>8,75</u> -	<u>7,60</u> -	<u>8,25</u> -	<u>0,57</u> 88,7	<u>0,67</u> 88,9	<u>0,62</u> 88,8	<u>0,62</u> 88,3	<u>34,21</u> 44,3	<u>3,55</u> -	<u>0,41</u> 82,4	<u>0,42</u> 83,7	<u>4,38</u> 55,4
9. FON-II. Aksial 5% - 0,75 l/ga	<u>0,61</u> 88,2	<u>0,67</u> 86,8	<u>0,48</u> 89,4	<u>0,43</u> 89,3	<u>9,22</u> -	<u>8,05</u> -	<u>7,55</u> -	<u>8,65</u> -	<u>35,66</u> 44,2	<u>0,55</u> 73,8	<u>3,87</u> -	<u>4,78</u> -	<u>9,20</u> 24,6
10. FON-II. Pik 75% -15 g/ga+ Aksial 50 KE - 0,75 l/ga	<u>0,51</u> 89,3	<u>0,65</u> 87,6	<u>0</u> 100	<u>0,46</u> 90,0	<u>0</u> 100	<u>0,80</u> 88,5	<u>0,65</u> 90,3	<u>0,60</u> 90,9	<u>3,16</u> 92,0	<u>0,51</u> 77,1	<u>0,31</u> 83,8	<u>0,51</u> 83,6	<u>1,33</u> 81,5
11. Shudgor 30-35 sm, chizellash 18-22 sm, molalash (FON-III). Nazorat - gerbisidsiz	<u>5,10</u> -	<u>4,61</u> -	<u>4,75</u> -	<u>5,19</u> -	<u>4,76</u> -	<u>5,07</u> -	<u>4,60</u> -	<u>5,11</u> -	<u>39,19</u> -	<u>2,87</u> -	<u>3,0</u> -	<u>3,98</u> -	<u>9,85</u> -
